

TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA AKSIOLOGIK YONDASHUV VA AKSIOLOGIK SHARTLARNING AHAMIYATI

Alikulova Muxayyo Sherovna,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

muxayyoalikulova@mail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola mazmunida oliy ta'lim muassasalarining talabalarida asosan oilaga oid aksiologik shartlarga amal qilish kifoya oilaga oid majmuaviy bilimlarini esa yo'l-yo'lakay, oila qo'rganlaridan keyin, o'zining hayotiy tajribalarim asosida egallab boraman kabi fikrlarning darajasi o'sib borayotganligi va bunday fikrlarni o'zgartirish jarayonida yoshlarimiz turli to'siqlar va qiyinchiliklarga ro'baru kelayotganliklari va bu to'siqlarning mazmuni ochib beruvchi makro, mezzo va mikro shartlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: makroshart, mezzoshart, mikroshart, ommaviy madaniyati, norasmiy internet saytlari, turli buzg'unchi g'oyalar, oiladagi nosog'lom muhit, nosog'lom fikrlovchi do'stlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что среди студентов высших учебных заведений растет уровень убеждения, что достаточно следовать аксиологическим условиям, связанным с семьей, и что комплексные знания о семье приобретаются в процессе жизни, после создания семьи, на основе собственного жизненного опыта, а также то, что наша молодежь сталкивается с различными препятствиями и трудностями в процессе изменения таких убеждений, и обсуждаются макро-, мезо- и микроусловия, раскрывающие содержание этих препятствий.

Ключевые слова: макроусловие, мезоусловие, микроусловие, массовая культура, неофициальные интернет-сайты, различные деструктивные идеи, нездоровая атмосфера в семье, нездоровые друзья.

Abstract. The content of this article is focused on the fact that the level of thoughts that it is enough to follow the axiological conditions related to the family is increasing among students of higher educational institutions, and that I will acquire complex knowledge about the family on the go, after starting a family, based on my own life experiences, and that our young people are facing various obstacles and difficulties in the process of changing such thoughts, and the macro, mezzo and micro conditions that reveal the content of these obstacles are discussed.

Keywords: macro condition, mezzo condition, micro condition, mass culture, unofficial Internet sites, various destructive ideas, unhealthy environment in the family, unhealthy friends.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda mustahkam ma'naviy-axloqiy poydevorni shakllantirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, talaba-yoshlarning oilaga oid qarashlarini aksiologik (qadriyatli) yondashuv asosida rivojlantirish ularning nafaqat nazariy bilimlarini boyitishga, balki oilani muqaddas dargoh sifatida idrok etishlariga xizmat qiladi. Aksiologik yondoshuvga asoslanib talabalarning oilaga oid majmuaviy bilimlarini shakllantirish jarayoni tizimli, oddiydan murakkabga qarab o'qitish tamoyili asosida borishi lozim. Bu esa talabalarni bu boradagi mavjud bilimlarini boyitishga va o'z-o'zini shakllantirishi uchun sharoit yaratilishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, ma'naviy-axloqiy va ma'naviy poklik insonning bilim darajasini belgilaydigan asosiy mezonlardir. Shaxslararo munosabatlarda qonunsizlik, qo'pollik,

savodsizlik, takabburlik, ziqnalik, yolg'on, xiyonat, dushmanlik, g'iybat, behuda va hasad kechirilmaydigan universal illatlardir, ularni bir so'z bilan ma'naviy va axloqiy nopoklik deb ta'riflash mumkin. Aksiologik yondashuvga asoslanib, talabalarning oila haqidagi bilimlarini kengaytirish ularning o'z-o'zini bilish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Istalgan vaqtda vijdoningiz, oilangiz va jamoangiz oldida mas'uliyatni his qilishingizga yordam beradi. Oliy ta'lim tashkilotlarida talaba faoliyatini uning o'quv jarayonidagi o'zlashtirish darajasi va yetakchilik xususiyatini shakllantirish bilan cheklash mumkin emas. Talaba olgan bilimi, faolligi, mehnatsevarligi, tirishqoqligi hamda insonparvarligini oila hayotiga yo'naltira olishiga ham erishish muhim. Shundagina talabalarni Imom G'azzoliy ta'kidlagan "haqiqiy insoniylik maqomiga" erishtirish mumkin bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, talaba maqomiga ega bo'lgan shaxslar o'zlarining fikrlashi o'z sohalaridagi bilimlari, mas'uliyati va insoniyatning qadr-qimmatini belgilaydigan boshqa fazilatlar asosida o'zlarining ta'lim traektoriyalarini tartibga soladilar, bu esa maxsus bilimlar bilan birgalikda insoniyatning qadr-qimmatini ham belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda aksiologik yondashuv muhim metodologik asos sifatida qaraladi. Xususan, Forobiy, Slastenin va boshqa olimlar asarlarida shaxs tarbiyasida qadriyatlarining o'rni, ularning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyati keng yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa talabalarning oilaga oid bilim va qarashlarini shakllantirishda psixologik-pedagogik omillar, shuningdek, ijtimoiy muhitning ta'siri alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, oila pedagogikasi va aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy ishlarda yoshlarning qadriyatli munosabatlarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari asoslab berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, nazariy tahlil va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi aksiologik shartlar asosida o'rganilib, ularning qadriyatli qarashlarini shakllantirish omillari tahlil qilindi. Shuningdek, olingan natijalar umumlashtirilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlillar va natijalar. Aksiologik yondashuv asosida yoshlarda oilaga oid majmuaviy bilimlarni hosil qilishda Oliy ta'limda amalga oshirilayotgan pedagogik jarayon oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- ta'lim jarayonida talabalarga oila qadriyatini oilaga oid majmuaviy bilimlar bilan birga singdirib borish;
- ta'lim jarayonida yoshlarning shaxslar bilan qadriyatli munosabatga kirishish ko'nikmasini hosil qilish;
- talabaning ongida oila va ijtimoiy qadriyatlar o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini chuqur his etishlariga ko'maklashish;
- talaba shaxsining yaratuvchanlik xususiyatini rag'batlantirish, kasbiy faoliyatda

samaraga erishish bevosita oila munosabatlariga bog‘liq ekanligini muammoli vaziyatlar orqali tushuntirib borish.

Aksiologik yondashuvda talabalar nimaga intilayotganini va ular qanday natijaga erishishlari kerakligini aniqlash muhimdir. Maqsadga aniq vazifalar tizimi orqali erishiladi. Maqsad va vazifalar bir-biri bilan bog‘liq, ular birgalikda ishlaydi. Mazkur yondashuv asosida ta‘lim jarayonini tashkil etishda o‘ziga xos aksiologik sharoitlar ham hisobga olinadi.

Aksiologik sharoitlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi: obektiv, obektiv-subektiv, subektiv.

Har qanday kompetentsiyani shakllantiradigan va obyektiv (tashqi) xususiyatga ega bo‘lgan aksiologik sharoitlar har qanday jarayonga oid bo‘lgan o‘zgaruvchan vaziyatdan boshqa narsa bo‘lmagan o‘zgaruvchan haqiqatdir. Bunday holda, ko‘rsatilgan holatlarni bir nechta shartlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq va bilamizki aksiologik sharoitlarning ham o‘zaro bir-biriga bog‘liq shakl ko‘rinishlari mavjud.

a) makro shart – “ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy, diniy holat, jamiyat psixologiyasi darajasining shart-omili, shuningdek, bevosita ijtimoiy makro muhit;

b) mezokonditsion - bu, aksiologik kompetentsiyaning tashuvchisi bo‘lgan ma’lum bir kichik jamiyatlar ichidagi makro shartga o‘xshash holat;

c) mikroshart – subyektning shaxsiy xususiyatga ega bo‘lgan salohiyati”.

Bizning fikrimizcha, taklif qilingan aksiologik sharoitlar ma’lum bir faoliyat subyektini bo‘lgan shaxs har doim obyektiv ravishda ijtimoiy faoliyatga kirishini va jamiyat, oila va o‘z-o‘zini anglash darajasidagi axloqiy munosabatlar va muloqotni psixologik jihatdan aks ettirishini anglatadi. OTM da talabalarning oila haqidagi salohiyati jamiyatning zamonaviy talablaridan orqada qolishi, asosan, keksa avlod vakillari o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish qadriyatlariga ega emasligi bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan talabalarning psixologik va pedagogik salohiyati darajasini oshirish uchun talabalar o‘zlarining qadriyatlaridan xabardor bo‘lishlari, ichki dunyosini o‘rganishlari uchun yetarli sharoitlarni yaratish kerak. Bu borada A.A.Derkachning fikrini keltirib o‘tish o‘rinli bo‘ladi uning fikricha, “o‘z-o‘zini takomillashtirish – bu o‘z-o‘zini tartibga solish va o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali o‘zini adolatli baholash va faoliyat natijasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muloqot jarayonida mavjud muammo va kamchiliklarni aksiologik yondoshuv orqali tezda bartaraf etish faoliyatning yaxlit tizimi rivojlanishining dinamikligini ta’minlashga xizmat qiladi” deyilgan.

Keltirilgan manbalar mazmunidan ma’lumki, ba’zi talabalar oila haqidagi bilimlarini boyitishda o‘z shaxsiyatining kuchli va zaif tomonlarini yaxshi anglamaydi. Shu sababli mazkur bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish uchun potentsial imkoniyatlaridan foydalana olmaydilar. Bu jarayonda asosan, talabalar o‘zlarining psixologik

xususiyatlarini, atrofdagilar bilan qadriyatli muloqot qilish qobiliyatini hisobga olishi lozim. Chunki bu kabi individual xususiyatlarni bilmasdan turib sohaga doir kasbiy malakani egallash mumkin emas. Talabalarning mustaqil o‘z ustida ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi ularda shaxsiy fazilatlarining shakllanishiga va kasbiy sifatlarni tarkip topishiga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarda unumdorlik, muloqatda kam energiya sarflash orqali optimal natijaga erishish hamda insonning muhim kuchlarini taqsimlay olish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Oliy ta‘lim tashkilotlarida talabalarning oilaga oid majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida shakllantirish uchun asos sifatida tashkiliy-uslubiy bazani, o‘quv jarayonini tashkil etish xususiyatlarini va boshqalarni o‘z ichiga olgan psixologik-pedagogik muhitni yaratish tashkiliy aksiologik shart-sharoitlarni o‘z ichiga oladi.

Bu shartlar talabalarga nafaqat kasbiy va shaxsiy sifatlari balki, psixologik-pedagogik salohiyatning rivojlanishiga zamin yaratadi. O‘quv jarayonida talaba shaxsi bilan qadriyatli munosabatni o‘rnatish, hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradigan, talabalarning qobiliyatlarini namoyon qiladigan “maxsus dastur” ishlab chiqish lozim. Oilaviy munosabatlar tizimini takomillashtirish uchun E.A.Grischuk o‘z tadqiqotida qadriyatli hamkorlikni asosiy tamoyillardan biri sifatida ajratib ko‘rsatdi. Grischuk ta’kidlaydiki: “...hamkorlik o‘zaro ta’sir turi sifatida ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarni birgalikdagi faoliyatning umumiy maqsadlari va vazifalari, uni tashkil etish va yuksak ma’naviy qadriyatlar bilan vositachilik qilishni nazarda tutadi”. E.A.Grischukning ta’kidlashicha esa talaba yoshlar hamkorlik qilishni va ushbu tamoyilni amalda qo‘llashni o‘rganishlari uchun quyidagi aksiologik holatni hisobga olish kerak:

- ota-onalarni hamkorlikni, muloqotni, o‘zaro yordamni tashkil etishga imkon beradigan jamoaviy ta’lim shakllariga tizimli ravishda qo‘shilishi, o‘zaro ta’limga hissa qo‘shishi;
- ijtimoiy ahamiyatga molik qadriyatlar yo‘nalishini shakllantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalashga motivatsion tayyorgarlik, kognitiv faoliyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga erishish.

Aksiologik yondashuv asosida talabalarning oila to‘g‘risida kompleks bilimlarini shakllantirish ta’lim olish imkonini beradigan psixologik va pedagogik texnologiyalardan foydalanishdir. Shu tufayli oila haqida bilim va ko‘nikmalarni egallash imkoniyati rivojlanmoqda. Bu esa talabaning hayotda muvaffaqiyat qozonishi va jamiyatda ijtimoiy jihatdan faol bo‘lishiga imkon beradi. Texnologik xarakterdagi aksiologik sharoitlar diagnostika, baholash va talabalarga qadriyatli yo‘nalishda rivojlanishning individual dinamikasini taqdim etishni o‘z ichiga oladi.

Tahliliy nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladigan keyingi aksiologik shart - bu qadriyatlarni shakllantirishning umumlashtirilgan usuliga asoslangan bilim, ko‘nikma va malakalarning innovatsion – bashoratli tizimining mavjudligidir. Ushbu shartlar

talabalarni amaliy fikrlash usullaridan foydalanishga o'rgatishga asoslangan. Shuningdek, o'quv jarayonida, pedagogik amaliyotda va faoliyatda yuzaga keladigan o'quv muammolarini hal qilishda haqiqiy hayotda foydalanishga qodir bo'lishi kerak. Pedagogik sharoitda turli xil yondashuvlardan foydalanish talabalarning bilim darajasiga qarab baholanadi. Ma'lumki bilim - bu inson ongida turli xil g'oyalar, tushunchalar, hukmlar, nazariyalar, qonunlar, qonunlar va boshqalar ko'rinishida aks etadigan haqiqatni bilish natijasidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mazkur pedagogik jarayon natijasida talaba oilani shunchaki ijtimoiy institut emas, balki oliy ma'naviy qadriyat sifatida anglab yetadi, bu esa kelajakda mustahkam oilalar barpo etilishining garovidir. Tizimli aksiologik yondashuv talaba shaxsini oilaviy hayotning murakkab vaziyatlarida to'g'ri qaror qabul qila oladigan, ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
2. Inomova M. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslari: Monografiya. – Toshkent: Fan, 2012. – 160 b.
3. Murodova M. Oila pedagogikasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 180 b.
4. Musurmanova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – Toshkent: O'qituvchi, 2000. – 140 b.
5. Slastenin V.A., Chijakova G.I. Vvedenie v pedagogicheskuyu aksiologiyu: Ucheb. posobie dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy. – M.: Akademiya, 2003. – 192 s.
6. Ziyomammedov B. Pedagogika. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 128 b
7. Петров А.В. Сенностниэ предпочтения молодежи: диагностика и тенденции изменений / А.В. Петров // Социол. исслед. – 2013. – № 2. – С. 83-90.
8. Гилфанова, Дания Закировна кандидат наук. Акмеологический подход как фактор повышения качества профессиональной подготовки будущего учителя безопасности жизнедеятельности. Автореф. дисс. канд. психол. наук. Москва. – 2012. – 29 с.
9. Грисчук Э.А. Возбуждениэ и детектирование стоячих гравитационных волн. ЖЕТФ, 1975, т. 68,
10. Деркач А.А. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. – М.: РОУ, 1993. 32 с. 80.